


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

60110300-Maxsus pedagogika
bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining
MALAKA TALABI

Toshkent-2025



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:
Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2025-yil «___» _____ dagi _____ - sonli buyrug'i bilan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi hamda
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Mazkur malaka talabi "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida malaka talabini rasmiy chop etish huquqi Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatning tavsifi	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatning sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatning obyektlari	6
1.2.3.	Kasbiy faoliyatning turlari	6
1.2.4.	Kasbiy vazifalar.....	6
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar	9
3.	Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar	11
4.	Fanlar katalogining tuzilishi	13
	Bibliografik ma'lumotlar	17
	Kelishuv varag'i.....	18

1. Umumiy tavsifi

60110300-Maxsus pedagogika ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi.

1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi 60110300-Maxsus pedagogika ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur ta'lim yo'nalishlari bo'yicha malaka talabi, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotlarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

ta'lim yo'nalishlarining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotning talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning otalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatning tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatning sohalari:

umumta'lim muassasalarida (maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktablar), maxsus maktab va maktab internatlar; ixtisoslashtirilgan ko'p tarmoqli hamda qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari; "Muruvvat" uylari; "Mehribonlik" uylari; "Mehrlil maktab"lar; imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus texnikumlar; sog'liqni saqlash vazirligi tasarrufidagi muassasalar, nodavlat tashkilotlarda maxsus pedagog, tarbiyachi lavozimida;

"Ijtimoiy himoya yagona reyestri"da ro'yxatda turgan ehtiyojmand shaxslarni qo'llab-quvvatlovchi va ularga kompleks yordam ko'rsatuvchi ijtimoiy xodim sifatida faoliyat olib borish;

pedagogika texnikumlarida mutaxassislik fanlari o'qituvchisi;

umumiy o'rta ta'lim maktabi, maxsus maktab va maktab internatlar; umumiy tipdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari, ixtisoslashtirilgan ko'p tarmoqli hamda qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida direktor lavozimida kasb standartiga muvofiq ta'lim muassasasini boshqarish;

maxsus maktab va maktab internatlar, oliy ta'lim tashkilotlarida ish

yurituvchi, tyutor;

60110300-Maxsus pedagogika: logopediya

umumiy o'rta ta'lim maktablari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari logoped shoxobchasi logopedi va mudiri, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida (maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktablar, maktab-internatlar) maxsus pedagog (logoped), tarbiyachi lavozimida;

60110300-Maxsus pedagogika: surdopedagogika

ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internat boshlang'ich sinf (musiqqa, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya fanidan tashqari) va korreksion fan o'qituvchisi, ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maxsus pedagog (o'qituvchi-surdopedagog), tarbiyachi;

kar bolalar uchun mo'ljallangan ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida eshitish xonasi o'qituvchi-defektologi lavozimi, zaif eshituvchi, keyinchalik kar bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida esa eshitish xonasi yo'riqchisi;

60110300-Maxsus pedagogika: oligofrenopedagogika

ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlari o'qituvchi-oligofrenopedagogi (jismoniy tarbiya, yuqori sinflarda texnologiya fanlaridan tashqari), ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maxsus pedagog (o'qituvchi-oligofrenopedagog), tarbiyachi;

60110300 – Maxsus pedagogika: tiflopedagogika

ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarida o'qituvchi-tiflopedagog, ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maxsus pedagog (o'qituvchi-tiflopedagog), tarbiyachi;

ko'zi ojiz bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarining boshlang'ich sinf (musiqqa, jismoniy madaniyat, tasviriy san'atdan tashqari) o'qituvchisi, korreksion fan (predmet tasavvurini shakllantirish va ko'ruv idrokini rivojlantirish, teri tuyish va mayda qo'l motorikasini rivojlantirish, mo'ljall olish va harakatlanishga o'rgatish, ijtimoiy-maishiy hayotga yo'naltirish) o'qituvchisi, tarbiyachi;

inklyuziv va korreksion sinflar tashkil etilgan umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich sinf (musiqqa, jismoniy madaniyat, tasviriy san'atdan tashqari) o'qituvchisi, tyutor, maxsus pedagog, tarbiyachi;

davlat xizmatlarining barcha sohalarida va uzluksiz ta'limning barcha bo'g'inlarida tiflosharhlovchi;

ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida ko'zi ojiz o'qituvchilar uchun (o'qib beruvchi va tarjimon) kotiba;

60110300-Maxsus pedagogika: surdotarjimonlik faoliyati

eshitishida nuqsoni bo'lgan shaxslar ta'lim oladigan yoki faoliyat yuritadigan tashkilotlarda, o'quv markazlarda, qo'shimcha ta'lim tashkilotlarida surdotarjimon;

davlat xizmatlarining barcha turlarida, shuningdek, yakka tadbirkorlik, turizm sohalarida surdotarjimon sifatida faoliyat yuritish kabi kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatning obyektlari:

umumiy o'rta ta'lim maktabi, umumiy tipdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari;

inklyuziv ta'lim tizimi joriy etilgan umumta'lim muassasalari;

alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlari;

imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus texnikumlari, shuningdek, pedagogika texnikumlari;

davlat boshqaruv organlari, "Ijtimoiy himoya milliy agentligi" va bo'limlarida, "Respublika ta'lim markazi", "O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi", inklyuziv ta'lim joriy etilgan davlat va nodavlat muassasalari;

"Muruvvat" uylari;

"Mehribonlik" uylari;

"Mehrli maktab"lar;

reabilitatsiya markazlari;

maktabdan tashqari tashkilotlar;

oliy ta'lim tashkilotlarida ishlash huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. Kasbiy faoliyatning turlari:

- *pedagogik;*

- *diagnostik-reabilitatsion;*

- *ma'naviy-ma'rifiy;*

- *ilmiy-tadqiqot;*

- *tashkiliy-boshqaruv.*

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

60110300-Maxsus pedagogika: ta'lim yo'nalishlari bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Pedagogik, korreksion faoliyatida:

ta'lim jarayonini rejalashtirish: DTS (surdopedagogika, tiflopedagogika), davlat talablar (oligofrenopedagogika)i va o'quv dasturlarining maqsadlariga muvofiq ish rejalarini ishlab chiqish, ta'lim oluvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib, umumiy o'rta ta'lim maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun ishlab chiqilgan o'quv dasturlarini moslashtirish, dars-mashg'ulotlarning aniq maqsad va natijalariga ko'ra texnologik xaritasini ishlab chiqish, differensial yondashuv asosida dars-mashg'ulot shakllarini tanlash va o'quv, namoyish va tarqatma materiallarni tayyorlash;

ta'lim samaradorligini ta'minlash: dars-mashg'ulot maqsadlariga ko'ra vazifalarni belgilash, mashg'ulot mavzusiga mos namoyish va tarqatma materiallardan foydalanish, dars-mashg'ulotda vaqt taqsimotini to'g'ri rejalashtirish, ta'lim jarayonida AKT va sun'iy intellektdan unumli foydalanish, ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish natijalariga ko'ra dars-mashg'ulotni olib borish va qo'llanilgan yondashuvlarning samaradorligini tahlil qilish, ta'lim

oluvchilarning ta'limiy maqsadlari va yosh xususiyatlariga mos keladigan o'qitish usullari va yondashuvlarini optimallashtirish, ta'lim oluvchilarning asosiy kompetensiyalari va hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan usullardan foydalanish, o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirish, ta'lim oluvchilarga differensial yordam berish, ta'lim jarayonida nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash, ta'lim oluvchilarni mantiqiy, kreativ, tanqidiy va mustaqil fikrlashga undovchi korreksion-rivojlantiruvchi muhit yaratish, dars-mashg'ulotlarda motivatsiyaga, samarali muloqot va refleksiyaga erishish;

korreksion-pedagogik ish natijalarini tahlil qilish, o'zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish: davriy diagnostika qilish uchun turli maxsus usul va vositalardan foydalanish, korreksion-pedagogik ish natijalarini monitoring qilish, dars-mashg'ulot rejasi va usullarini moslashtirishda tahlil natijalaridan foydalanish, mavjud va yuzaga keladigan metodik, diagnostik, tashkiliy-gigiyenik, ijtimoiy muammolarni aniqlay olish va tahlil qilish, ta'lim natijalarini baholash uchun turli usul va vositalardan foydalanish, baholash mezonlarini bilish va amalda qo'llash, rivojlanishida og'ir va ko'p nuqsonga ega bo'lgan bolalarning psixik va ijtimoiy rivojlanishini kompleks baholash asosida yakka rivojlantirish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish;

tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish: tarbiyaviy ishlarning zamonaviy, interaktiv shakl va usullarini mashg'ulotlarda qo'llash, tarbiyaviy ishlarda tarbiyalanuvchilarning jinsi, yoshi, madaniy va individual xususiyatlarini inobatga olish, ta'lim muassasasining Ustavi va ichki tartib qoidalariga muvofiq ta'lim oluvchilar uchun aniq odob-axloq qoidalarini o'rnatish, ijtimoiy sog'lom muhitni yaratish, ta'lim oluvchilarda kognitiv faollik, mustaqillik, tashabbuskorlik, tejamkorlik, tadbirkorlik, ijodkorlik, fuqarolik pozitsiyasi, mehnat, sog'lom va xavfsiz turmush tarzi ko'nikmalarini rivojlantirish;

xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash: ta'lim oluvchilar orasida o'zaro hurmat, do'stona munosabat muhitini yaratish, kun tartibi asosida teng imkoniyatlarni yaratish, nizoli vaziyatlarda optimal yechimli qaror qabul qilish, individual yondashuv asosida ishlash, kasbiy faoliyatda xavfsizlik va texnika qoidalariga rioya etish, favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanish; globallashtirish axborot makonida xavfsiz faoliyat yuritishga o'rgatish hamda virtual qaramlik, zo'ravonlik (bulling), huquqbuzarlik, loqaydlikning oldini olish;

o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish: muntazam malaka oshirishning turli shakllaridan foydalanish, sohaga oid adabiyotlar, tadqiqotlar, tajribalar bilan tanishish, yangi bilimlarni amaliyotda qo'llash, kasbiy faoliyat yuzasidan onlayn va oflayn seminar, trening, master klass, kouching, vebinar, til o'rganish kurslarida hamda sog'lomlashtirish tadbirlarida, ixtisoslikka tegishli ekspertiza jarayonlarida ishtirok etish, shuningdek, faoliyat natijalarini ommalashtiruvchi tadbirlar, ochiq mashg'ulotlar tashkil etish, dars-mashg'ulotlarni kuzatish, tahlil qilish, kasbiy faoliyatda ijobiy-innovatsion transformatsiyaga erishish;

hamkasblar va ta'lim oluvchilarning ota-onalari (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) hamda tor doira mutaxassislar bilan hamkorlik o'rnatish: ta'lim oluvchilarning ota-onalari (yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) va tor doira mutaxassislarni korreksion-pedagogik jarayonga jalb etish, bola rivojlanishi

hamda ta'lim muhiti bilan bog'liq manfaatli va to'g'ri qarorlar qabul qilish uchun konsilium tashkil etish, shuningdek, integrativ faoliyatni natijaga yo'naltirish;

Diagnostik-reabilitatsion faoliyatida:

maxsus pedagogik diagnostika uchun turli testlar, so'rovnomalar, kuzatuvlar va intervyularni to'g'ri tanlab olish va qo'llash, konfidensiallik va shaxsiy ma'lumotlarni muhofaza qilish;

yangi diagnostika usullari va metodologiyalarini o'rganishga tayyor bo'lish, psixodiagnostika, pedagogik diagnostika usullari va ularni amaliy qo'llash;

turli yosh bosqichlarida bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni erta kompleks tashxis qilishning standartlashgan va adaptivlashtirilgan metodlarini, tashxis jarayonini to'g'ri tashkil qilishni, tashxis natijalari asosida individual korreksion-rivojlantiruvchi dastur tuzish, zarur bo'lganda dasturni yangilash;

korreksion-rivojlantiruvchi ta'sirning samaradorligini baholash maqsadida dinamik kuzatuvni amalga oshirish;

psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya faoliyatida ishtirok etish, PTPKga bolani tayyorlash va bola uchun mos ta'lim turini tanlash jarayonida professional eruditsiyani namoyon etish;

bolada mavjud nuqsonlarning kelib chiqish sabablari va xususiyatlari haqida ota-onalarga ommabop kontekstda ma'lumotlar berish hamda ularni istiqbolda bolani kompleks rivojlantirishga qaratilgan korreksion-pedagogik jarayonga teng huquqli sheriklar sifatida jalb etish;

bolalar va kattalar reabilitatsiyasida qo'llaniladigan texnik, fizioterapevtik, ART, neyropedagogik usullarni tanlash va qo'llash;

reabilitatsiya mashg'ulotlarini o'tkazish va ularni bolalar va kattalarning xususiyatlariga moslashtirish, jismoniy, psixologik va ijtimoiy reabilitatsiya usullarini qo'llash.

sensor xona trenajorlarini nogironlik toifasiga ko'ra tanlash va qo'llash;

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida:

o'quvchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni shakllantiruvchi metod va texnologiyalarni bilish hamda amaliyotda qo'llay olish;

globallashuv sharoitida kechayotgan jarayonlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni va ta'siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

ta'lim oluvchilarda ijtimoiy faollik, vatanparvarlik, bag'rikenglik, insonparvarlik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni shakllantirish va faol fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlab borish;

akademik halollik tamoyillariga rioya qilish, plagiatga qarshi kurashish madaniyatini shakllantirish;

milliy urf-odat va marosimlarni o'tkazishda, umuminsoniy qadriyatlar, mehr-muruvvat, bag'rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarni ochib berish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

maxsus pedagogika va tegishli ilmiy sohalar bo'yicha chuqur nazariy bilimga ega bo'lish, xalqaro va milliy ilmiy standartlar va axborot manbalarini tushunish;

ilmiy tadqiqotlarning metodologiyasi va usullari, statistika asoslarini bilish;

tadqiqot mavzusini aniqlash va ilmiy maqsadlarni belgilash, tadqiqot metodlari va usullarini tanlash va samarali qo'llash, ilmiy tajribalarni, kuzatuvlar va sinovlarni tashkil etish;

konferensiyalar, simpoziumlar va seminarlarda natijalarni taqdim etish, ilmiy axborotni mutaxassis va keng omma uchun tushunarli tarzda yetkazish, ilmiy tadqiqotlarda etik me'yorlarga qat'iy rioya qilgan holda tezis va maqolalar chop etishi kerak.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

kasbiy axloq etikasiga rioya qilish;

maxsus ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asoslari (normativ-huquqiy, ma'muriy va tashkiliy)ni, maxsus ta'limga oid qonun va me'yoriy hujjatlarni bilish;

ta'lim muassasasida o'quv-tarbiya, ma'naviy-ma'rifiy, metodik, korreksion xizmatlarni tashkil etish, inson resurslarini boshqarish: kadrlar tanlovi, malaka oshirish, ishni baholash;

maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash jarayonida mutaxassislar faoliyatini muvofiqlashtirish;

pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim jarayonlari monitoringi va sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;

jamoada ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;

fikrlar har xil bo'lgan sharoitda adolatli va to'g'ri qaror qabul qilish;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

Logopediya ta'lim yo'nalishiga oid:

nutq buzilishlari sabablari va oqibatlarini chuqur tahlil qilish hamda ilmiy asoslangan tasnif tizimlariga muvofiq tasnifiy guruhlariga ajrata olish, korreksiya ishlarini tasnifga ko'ra modellashtirish;

diafragmal nafas olishni o'rgatish va mustahkamlash usullarini bilish, nafas va nutq uyg'unligini rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni tashkil eta olish va olib borish;

artikulyator organlarning harakatchanligini oshirish (lab, til, yumshoq tanglay, jag') bo'yicha mashqlarni va logopedik massajni bolalarning yoshiga va nuqson turiga mos tanlash va amaliy qo'llash;

motorika va nutq o'rtasidagi bog'liqlikni tushunish, sensor-motor integratsiyani qo'llab-quvvatlovchi mashqlarni tashkil eta olish;

koordinatsiya, muvozanat, ritm mashqlari orqali miyacha stimulyatsiyasini tashkil eta olish, vestibulyar apparatni rag'batlantirish orqali nutqiy faoliyatni yaxshilash;

nutq nuqsonlarining oldini olish, korreksiyalash amaliyotini tanqidiy tahlil qilish va innovatsion usullarini samarali qo'llay olish va korreksiya ishlari uchun adaptiv resurslar tayyorlash;

sensomotor ritmikaning nazariy va amaliy asoslarini chuqur tushunish, harakat, ritm va nutq o'rtasidagi o'zaro ta'sirning kompleks imkoniyatlaridan

ratsional foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishi.

Surdopedagogika ta'lim yo'nalishiga oid:

kar va zaif eshituvchi bolalarni sensor integrativ faoliyatga jalb etish orqali ularda muloqotga ehtiyojni rivojlantirish, harakatlarni algoritmik amalga oshirishga o'rgatish vositasida kreativ, tanqidiy, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish usullarini qo'llash;

o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, kasbga yo'naltirish va foydali mehnatga o'rgatishning samarali metodikalarini qo'llash;

predmetli-amaliy faoliyat mohiyatini tushungan holda "nutqiy akseleratsiya" davri uchun mos lug'at zaxirasini fanlararo integratsiyada shakllantirish;

ona tilini o'rgatishda multimodal yondashuv (ko'rib-eshtitish, eshitish, ko'rish, noverbal harakatlar) asosida ta'lim jarayonini tashkil etish;

kar va zaif eshituvchi o'quvchilarga matematikani o'qitishda DTS talablari doirasida o'quv topshiriqlarni sinflar kesimida differensial ishlab chiqish va ularga mos didaktik tarqatmalarni matnli, vizual va grafikli tayyorlash;

o'quvchilarning talaffuzini me'yorlashtirishda korreksion-rivojlantiruvchi metodlar va vositalarni adaptivlashtirish;

o'quvchilarning eshitish qoldig'idan maksimal darajada foydalanish va eshitish idrokini rivojlantirishni ta'lim jarayonining barqaror strategiyasi sifatida amalga oshirish;

kar va zaif eshituvchi o'quvchilari uchun imo-ishora nutqidan foydalanishda til qoidalariga rioya etish;

o'quvchilarning nutqini rivojlantirish va sog'lom insonlar o'rtasida muloqot uchun yetarli darajada lug'at zaxirasini shakllantirishda "Yagona nutqiy tartib" ga rioya etish va bu jarayonga ota-onalarni jalb etish;

tabiiy fanlarni o'qitishda o'quv jarayonining hayotiyligini ta'minlash va darslarning turli shakllaridan samarali foydalanish;

audiogramma va audiologik testlar natijalarini o'qish, diagnostik ma'lumotlar asosida individual nutqiy rivojlanish rejasini tuzish va xaftalik, oylik, choraklik natijalarni qayd qilib borish;

kar va zaif eshituvchi bolalarning ehtiyojiga mos ravishda eshitish apparatlari, individual eshitish protezlari, koxlear implantlar, FM tizimlari kabi moslamalarni tanlash, ishlatish ko'nikmasiga ega bo'lishi.

Oligofrenopedagogika ta'lim yo'nalishiga oid:

aqli zaiflikning kelib chiqish sabablari, aqli zaiflikning yengil, o'rta, og'ir, chuqur og'ir darajalari va tasniflari haqida chuqur bilimga ega bo'lish;

aqli zaif o'quvchilarning matematik tasavvurlarini shakllantirishda texnologiya, tabiiy fanlar, ona tili va boshqa fanlar bilan integratsiyada real hayotiy vaziyatlar, imitatsion yondashuvlar, differensial didaktik resurslar vositasidan foydalanish;

aqliy rivojlanish muammolarini erta aniqlash va ularga erta aralashuvni tashkil etish orqali ularda hayotiy va ijtimoiy ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish, sotsializatsiya choralari qo'llash;

aqli zaif o'quvchilarga savod o'rgatishning innovatsion usullari va texnologiyalarini tanlash va qo'llash;

o'quvchilarni oilaviy hayotga tayyorlash va kasb-hunarga o'rgatish bo'yicha adaptiv ish turlari va vositalarini tanlash va qo'llash;

mental muammolarni turli yosh davrlarida paydo bo'lishi xususida bilimlarga ega bo'lish hamda ularning oldini oluvchi neyropedagogik texnologiyalarni qo'llash;

aqli zaif o'smirlar va o'spirinlarda uchrashi mumkin bo'lgan turli zo'riqishlarni klinik-psixologik baholash va salbiy oqibatlarining oldini olish ko'nikmasiga ega bo'lishi.

Tiflopedagogika ta'lim yo'nalishiga oid:

Brayl yozuvi va relyefli grafikallarni to'g'ri o'qish va ularning mazmunini aniq izohlash;

ko'zi ojiz o'quvchilarga ona tilini o'rgatishda maxsus pedagogik yondashuvlarni qo'llash, o'quv materiallarini ularning ehtiyojlariga moslashtirish hamda Brayl alifbosi, taktil vositalar va audioresurslardan samarali foydalanish;

ko'zi ojiz o'quvchilarga tabiiy fanlarni o'qitishda laboratoriya mashg'ulotlari va amaliy tajribalarni moslashtirilgan shaklda tashkil etishda taktil, eshitish vositalari, maxsus darsliklar va hajmli modellardan samarali foydalanish;

fanlarni o'qitishda, tarbiyaviy va korreksion mashg'ulotlarda Brayl yozuvi, audiovositalar va sensor materiallar, zamonaviy tiflotexnika vositalari bilan ishlash;

tiflosharxlashning situativ moslashuvchan usullarini nutqiy va hayotiy vaziyatga va emotsional ehtiyojlarga mos holda tanlash va samarali qo'llash ko'nikmasiga ega bo'lishi.

Surdotarjimonlik ta'lim yo'nalishiga oid:

real hayotda, ko'rsatuvlar, darslar, sud va tadbirlarda mustaqil, aniq surdotarjima qilish, karlar madaniyati va ehtiyojlarini tushunib, etika me'yorlariga amal qilgan holda faoliyat yuritish;

surdotarjimon kasbiy faoliyatda hissiy barqarorlikni saqlab, emotsional stressni boshqara olishi, xatti-harakatlarini tahlil qilish, kasbiy xatolarni tezkor bartaraf etish;

og'zaki va imo-ishora nutqini aniq tarjima qila olish, tarjima texnikalarini bilish va kasbiy faoliyatni muntazam rivojlantirish;

kar va eshituvchi shaxslar o'rtasida samarali muloqotni tashkil etish, mijoz bilan hurmatli muloqot qilish va kasbiy etikaga rioya qilib, jamoada ishlay olish;

sinxron surdotarjimon sifatida tez va aniq, axloqiy me'yorlarga rioya qilgan holda texnik vositalar yordamida real vaqt rejimida tarjima qila olish;

video tarjima va onlayn platformalarda, subtitrlash hamda audiovizual materiallar bilan samarali ishlay olish;

diqqat, tez fikrlash, mustahkam xotira va konsentratsiyaga ega bo'lish, nutq kontekstini anglab taxmin qila olish va notanish, yangi so'zlarni sinonimik kontekstda tarjima qilish ko'nikmasiga ega bo'lishi.

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar:

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni

shakllantirishga qaratiladi;

Kunduzgi ta'lim shaklida tahsil oluvchi talabalarning 4+2 tartibdagi malakaviy amaliyoti 5-8-semestrlarda amalga oshiriladi. Bunda haftaning 4 kuni nazariy va amaliy ta'lim, 2 kuni umumiy va o'rta ta'lim tashkilotlari, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat va nodavlat hamda qo'shma ta'lim muassasalari, sog'liqni saqlash vazirligi tasarrufidagi muassasalarda o'tkaziladi.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. O'quv-tanishuv amaliyotlari.
2. Malakaviy amaliyot.
3. Pedagogik amaliyot.

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

4.1. Logopediya, Surdopedagogika, Oligofrenopedagogika va Tiflopedagogika ta'lim yo'nalishlari bo'yicha

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklama hajmi (soatda)	Umumiy yuklama hajmi (kredit)	Semestri
1.00		Umumiy majburiy fanlar*			
1.01	PSY11210	Umumiy psixologiya	300 150/150	10	1,2
1.02	O'EYT1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.03	MSVAX1105	Mediasavodxonlik va axborot madaniyati	150	5	1
1.04	O'RT1206	Amaliy o'zbek (rus) tili. O'zbek tilininig sohada qo'llanilishi	180	6	2
1.05	FAL1204	Falsafa	120	4	2
1.06	MK1105	Mutaxassislikka kirish	150	5	1
1.07	OAVF1105	Odam anatomiyasi va fiziologiyasi	150	5	1
1.08	MPKA11212	Maxsus pedagogikaning klinik asoslari	360 180/180	12	1,2
1.09	SB.O'DICHM 1306	Sinf boshqaruvi. O'quv dasturlarini ishlab chiqish va tatbiq etish	180	6	3
1.10	TB1404	Ta'limda baholash	120	4	4
1.11	InkT.GP1405	Inklyuziv ta'lim. Gospital pedagogika	150	5	4
1.12	DIN1304	Dinshunoslik	120	4	3
		Jami	2100	70	
Logopediya bo'yicha majburiy fanlar					
1.13	NOR1205	Nutqning ontogenezdada rivojlanishi	150	5	2
1.14	MPedMPsix134 11	Maxsus pedagogika va maxsus psixologiya	330	11	3,4
1.15	LP13410	Logopediya I	300	10	3,4
1.16	LP15610	Logopediya II	300	10	5,6
1.17	LP1704	Logopediya III	120	4	7
1.18	LPs1604	Logopsixologiya	120	4	6
1.19	RNBBLR1604	Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning logopedik reabilitatsiyasi	120	4	6
1.20	LT1504	Logopedik texnologiya I	120	4	5
1.21	LT1604	Logopedik texnologiya II	120	4	6
1.22	LM1504	Logopedik massaj	120	4	5
1.24	PPD1506	Pedagogik-psixologik diagnostika	180	6	5
1.25	LXTE1804	Logopedik xizmatni tashkil etish	120	4	8
		Jami	2100	70	
2.00		Tanlov fanlari	1500	50	3-8
Kvalifikatsiya		O'qituvchi-logoped			
		Malaka amaliyoti	1320	44	2,5-8
		Davlat attestatsiyasi (BMI)	180	6	8
		Jami	7200	240	1-8

Surdopedagogika bo'yicha majburiy fanlar					
1.13	SPs1205	Surdopsixologiya	150	5	2
1.14	SP1305	Surdopedagogika	150	5	3
1.15	TFO'M1604	Texnologiya (Predmetli amaliy ta'lim) fanini o'qitish metodikasi	120	4	6
1.16	OO'MM13410	Ona tili o'qitish maxsus metodikasi	300	10	3-4
1.17	AO'MM1405	Adabiyotni o'qitish maxsus metodikasi	150	5	4
1.18	DSNA1604	Daktilologiya va imo-ishora nutqi	120	4	6
1.19	MO'MM15608	Matematika o'qitish maxsus metodikasi	240	8	5-6
1.20	NMLO'O'M1604	Nutqiy muloqot va labdan o'qishga o'rgatish metodikasi	120	4	6
1.21	SVS1804	Surdotexnika va surdodiagnostika	120	4	8
1.22	TMSH1506	Talaffuz malakalarini shakllantirish	180	6	5
1.23	EIRM1504	Eshitish idrokini rivojlantirish metodikasi	120	4	5
1.24	MPP1405	Maxsus pedagogika va maxsus psixologiya	150	5	4
1.25	PPDK1306	Pedagogik-psixologik diagnostika	180	6	3
1.26	FR1804	Fonetik ritmika	120	4	7
		Jami	2220	74	
2.00.		Tanlov fanlari	1380	46	3-8
Kvalifikatsiya		O'qituvchi-surdopedagog			
		Malaka amaliyoti	1320	44	2,5-8
		Davlat attestatsiyasi (BMI)	180	6	8
		Jami	7200	240	1-8
Oligofrenopedagogika bo'yicha majburiy fanlar					
1.13	OligoPs1205	Oligofrenopsixologiya	150	5	2
1.14	OligoPed1405	Oligofrenopedagogika	150	5	4
1.15	TO'MM1404	Texnologiyani o'qitish maxsus metodikasi	120	4	4
1.16	TSO'MM1305	Tasviriy san'at o'qitish maxsus metodikasi	150	5	3
1.17	OTO'MM15608	Ona tili o'qitish maxsus metodikasi	240	8	5,6
1.18	MO'MM15608	Matematika o'qitish maxsus metodikasi	240	8	5,6
1.19	Logo1305	Logopediya	150	5	3
1.20	TIMM1604	Tarbiyaviy ishlar maxsus metodikasi	120	4	6
1.21	TFO'MM1804	Tabiiy fanlarni o'qitish maxsus metodikasi	120	4	8
1.22	IS1804	Ijtimoiy savodxonlik	120	4	8
1.23	NO'MM1504	Nutq o'stirish maxsus metodikasi	120	4	5
1.24	SI 1704	Sensor integratsiya	120	4	7
1.25	MPedMpsix1406	Maxsus pedagogika va maxsus psixologiya	180	6	4
1.26	PPD1504	Pedagogik-psixologik diagnostika	120	4	5
		Jami	2100	70	
2.00		Tanlov fanlari	1500	50	3-8

Kvalifikatsiya		O'qituvchi-oligofrenopedagog			
		Malaka amaliyoti	1320	44	2,5-8
		Davlat attestatsiyasi (BMI)	180	6	8
		Jami	7200	240	1-8
Tiflopedagogika bo'yicha majburiy fanlar					
1.13	TBTO'Y1305	Tiflotexnika va Brayl tizimida o'qish va yozish	150	5	3
1.14	TifPsix1205	Tiflopsixologiya	150	5	2
1.15	TifPed1305	Tiflopedagogika	150	5	3
1.16	TTS1404	Tiflografika va tasviriy san'at	120	4	4
1.17	TFO'M1404	Texnologiya fanini o'qitish metodikasi	120	4	4
1.18	OTO'MM15610	Ona tili o'qitish maxsus metodikasi	300	10	5-6
1.19	PTSHKIR1604	Predmet tasavvurini shakllantirish va ko'ruv idrokini rivojlantirish	120	4	6
1.20	MO'MM15608	Matematika o'qitish maxsus metodikasi	240	8	5-6
1.21	MOHO'1504	Mo'ljal olish va harakatlanishga o'rgatish	120	4	5
1.22	TTMQMR1604	Teri tuyish va mayda qo'l motorikasini rivojlantirish	120	4	6
1.23	TabFO'M1704	Tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi	120	4	7
1.24	IMHY1804	Ijtimoiy-maishiy hayotga yo'naltirish	120	4	8
1.25	PPDK13411	Pedagogik-psixologik diagnostika va korreksiya	330	11	3,4
		Jami	2160	61	
2.00		Tanlov fanlari	1440	48	3-8
Kvalifikatsiya		O'qituvchi-tiflopedagog			
		Malaka amaliyoti	1320	44	2,5-8
		Davlat attestatsiyasi (BMI)	180	6	8
		J a m i	7200	240	1-8

*- Mazkur ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalarining tanlov fanlari qismiga "Kasbiy sohada xorijiy tillar (ECTS)" fani majburiy tarzda kiritiladi.

Izoh: Belgilangan umumiy soat o'zgartirilmaydi.

4.2. Surdotarjimonlik yo'nalishi bo'yicha

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklama hajmi (soatda)	Umumiy yuklama hajmi (kredit)	Semestri
1.00		Majburiy fanlar*			
1.01	PSY11210	Umumiy psixologiya	300 150/150	10	1,2
1.02	O'EYT1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.03	MSVAX1105	Mediasavodxonlik va axborot madaniyati	150	5	1
1.04	O'RT1206	Amaliy o'zbek (rus) tili. O'zbek tilininig sohada qo'llanilishi	180	6	2
1.05	FAL1204	Falsafa	120	4	2

1.06	MK1105	Mutaxassislikka kirish	150	5	1
1.07	OAVF1105	Odam anatomiyasi va fiziologiyasi	150	5	1
1.08	MPKA1206	Maxsus pedagogikaning klinik asoslari	180	6	2
1.09	SB.O'DICHM 1306	Sinf boshqaruvi. O'quv dasturlarini ishlab chiqish va tatbiq etish	180	6	3
1.10	TB1404	Ta'limda baholash	120	4	4
1.11	InkT.GP1405	Inklyuziv ta'lim. Gospital pedagogika	150	5	4
1.12	DIN1404	Dinshunoslik	120	4	4
1.13	MaxPedMPs13 411	Maxsus pedagogika va maxsus psixologiya	330	11	3,4
1.14	O'IIT15608	O'zbek imo-ishora tili	330	11	1,2
1.15	JT1204	Jahon tarixi	150	5	4
1.16	DIIO'M13410	Daktilologiya va imo-ishoraga o'rgatish metodikasi	300	10	3,4
1.17	SA1505	Surdopedagogika va surdopsixologiya asoslari	150	5	5
1.18	NMMT15605	Nutqiy muloqot texnologiyasi	270	9	5-6
1.19	BFTS15609	Boshqa faoliyat turlarida surdotarjimonlik	270	9	5-6
1.20	VNKV1505	Verbal va noverbal kommunikativ vositalar	150	5	5
1.21	SP15609	Surdotarjimonlik praktikumi	270	9	5-6
1.22	SSGF1805	Sinxron surdotarjimaning nazariy va amaliy asoslari	150	5	8
1.23	MTHA1604	Maxsus ta'limning huquqiy asoslari	120	4	6
1.24	XIIT1805	Xalqaro imo-ishora tili (Jestuno)	150	5	8
1.25	FIIQ1805	Frazeologiyada imo-ishorani qo'llash	150	5	8
		Jami	4710	157	
2.00		Tanlov fanlari	1110	37	3-8
Kvalifikatsiya		Surdotarjimon			
		Malakaviy amaliyot	1200	40	2,4,5-8
		Davlat attestatsiyasi (BMI)	180	6	8
		Jami	7200	240	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 371.9

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Davlat ta'lim standarti, malaka talablari, o'quv reja, kompetensiya, modul, kasbiy faoliyat sohasi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat turi, amaliyot, amaliyot obyekti, kadrlar sifati, yuklama, yuklama hajmi, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, korreksiya, nutq buzilishlari, karlik, zaif eshituvchilik, aqli zaiflik, ko'zi ojiz, zaif ko'ruvchi, adaptiv dastur, kompensatsiya, rehabilitatsiya, abilitatsiya, inklyuziv ta'lim, maxsus ta'lim muassasalari, diagnostika, integratsiya, ko'p tarmoqli maktabgacha ta'lim tashkilotlari, tashxis, imkoniyatlari cheklangan bolalar, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar, pedagog, maxsus pedagog, surdotarjimon, majburiy fanlar, tanlov fanlari, 4+2 amaliyot.

Kelishuv varag'i

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari**

ISHLAB CHIQLIGAN:

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti

Rektor v.v.b.  Z. Raxmanov

2025-yil «»



KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor  A. Xoliqov

2025-yil «»

M.O'.

O'zbekiston Respublikasi

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
huzuridagi

Respublika ta'lim markazi

Direktor v.v.b.  D. Norboyeva

2025-yil «»

M.O'.




Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Rektor  G. Muxamedov

2025-yil «»

M.O'.

Guliston davlat pedagogika instituti

Rektor  J. Karshibayev

2025-yil «»

M.O'.

